



Demografik holat


(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni. Qashqadaryo viloyati doimiy aholisi soni 2019 yil 1 oktabr holatiga 3261,2 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 48,2 ming kishiga yoki 1,5 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1403,4 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 43,0 %), qishloq aholisi soni 1857,8 ming kishini (57,0 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2019 yil yanvar-sentabr

- Aholi soni **48,2 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **62,2 ming nafarni** tashkil etdi.
- **9,1 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **17,7 mingta nikoh** va **1,1 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Qashqadaryo viloyati aholisining umumiy o'sishi (2019 yil yanvar-sentabr oylarida)



Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

(1 oktabr holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)

	2018 yil	2019 yil*	O'tgan yilga nisbatan o'sish yoki kamayish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyati	3195,1	3261,2	102,1
Qarshi sh.	269,9	274,6	101,7
Shahrisabz sh.	136,3	138,8	101,8
tumanlar:			
G'uzor	198,3	202,1	101,9
Dehqonobod	142,9	145,9	102,1
Qamashi	263,4	269,3	102,2
Qarshi	240,4	245,6	102,2
Koson	276,7	282,8	102,2
Kitob	257,7	262,4	101,8
Mirishkor	116,2	118,5	102,0
Muborak	84,4	86,1	102,0
Nishon	147,8	151,3	102,4
Kasbi	190,8	194,8	102,1
Chiroqchi	396,8	406,7	102,5
Shahrisabz	217,1	220,5	101,6
Yakkabog`	256,4	261,8	102,1


*) dastlabki ma'lumot

Viloyat tumanlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 oktabr holatiga eng ko'p aholi soni Chiroqchi tumanida 406,7 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 12,5 % ni) va Koson tumanida 282,8 ming kishini (8,7 %), Qarshi shahrida 274,6 ming kishini (8,4 %), aksincha eng kam aholi soni Muborak tumanida 86,1 ming kishi (2,6 %) va Mirishkor tumanida 118,5 ming kishini (3,6 %) tashkil etdi.

Tumanlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan Chiroqchi tumanida 2,6 %ni, Qamashi, va Qarshi va Koson tumanlarida 2,2 % ni, Dehqonobod, Kasbi va Yakkabog' tumanlarida 2,1%ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Qarshi shahrida 1,7 % ni, Shahrisabz shahar, Kitob tumanida 1,8 % ni va Shahrisabz tumanida 1,6 % ni tashkil etdi.


Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi

(2019 yil 1 oktabr holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)



Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi

(2019 yil 1 oktabr holatiga, % da dastlabki ma'lumot)



Doimiy aholi sonining tumanlar kesimida jinslar bo'yicha taqsimlanishi
(2019 yillar 1 oktabr holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)

	Jami	Erkaklar	Ayollar
Qashqadaryo viloyati	3261,2	1 650,1	1 611,1
Qarshi sh.	274,6	137,7	136,9
Shahrisabz sh.	138,8	70,4	68,4
tumanlar:			
G`uzor	202,1	102,6	99,5
Dehqonobod	145,9	73,5	72,4
Qamashi	269,3	136,4	132,9
Qarshi	245,6	122,0	123,6
Koson	282,8	143,4	139,4
Kitob	262,4	133,4	129,0
Mirishkor	118,5	60,6	57,9
Muborak	86,1	43,4	42,7
Nishon	151,3	75,8	75,5
Kasbi	194,8	99,5	95,3
Chiroqchi	406,7	206,7	200,0
Shahrisabz	220,5	112,1	108,4
Yakkabog`	261,8	132,6	129,2



Tug'ilish. 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida 62,2 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 25,7 promilleni tashkil etib, 2019 yilning mos davriga nisbatan 0,7 promillega ko'paygan (2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 25,0 promille bo'lgan).




O'g'il bolalar: 33,5 ming nafar
Qiz bolalar: 28,7 ming nafar

Tug'ilish koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari Qarshi shahrida (18,4 promilledan 23,5 promillega), Qamashi (25,7 promilledan 29,4 promillega) va Koson (25,4 promilledan 26,9 promillega) tumanlarida va eng yuqori kamayish sur'atlari Chiroqchi (31,3 promilledan 28,7 promillega), Shahrisabz tumanida (21,5 promilledan 20,9 promillega), Mirishkor (24,9 promilledan 24,2 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskularning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq

Tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-sentabr)



Tumanlar kesimida tug`ilganlar soni birlik, o`shish yoki kamayish sur`ati %da (yanvar-sentabr)

	2018 y.	2019 y.	O`shish yoki kamayish sur`ati % da
Qashqadaryo viloyati	59 406	62 188	104,7
Qarshi sh.	3 697	4 789	129,5
Shahrisabz sh.	2 370	2 418	102,0
tumanlar:			
G`uzor	3 733	3 802	101,8
Dehqonobod	2 918	3 002	102,9
Qamashi	5 025	5 867	116,8
Qarshi	4 010	4 160	103,7
Koson	5 208	5 635	108,2
Kitob	4 511	4 694	104,1
Mirishkor	2 148	2 130	99,2
Muborak	1 592	1 589	99,8
Nishon	2 876	3 014	104,8
Kasbi	3 493	3 657	104,7
Chiroqchi	9 207	8 663	94,1
Shahrisabz	3 469	3 434	99,0
Yakkabog`	5 149	5 334	103,6



Vafot etganlar. 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida 9,1 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 3,8 promilleni tashkil etdi, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega kamaydi (2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 4,0 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2019 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada o'sish sur'atlari Qarshi shahrida (4,2 promilledan 4,6 promillega), aksincha sezilarli darajada kamayishi sur'atlari Kasbi (4,4 promilledan 3,6 promillega), Chiroqchi (3,6 promilledan 3,1 promillega) Qarshi tumani (4,3 promilledan 3,9 promillega), Mirishkor (3,8 promilledan 3,4 promillega), Yakkabog' (4,4 promilledan 4,1 promillega) va Shaxrisabz (4,1 promilledan 3,8 promillega) tumanlarida ku-


Vafot etganlar



Erkaklar:
5,1
ming
kishi

Ayollar:
4,0
ming
kishi

Tumanlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-sentabr)




**Tumanlar kesimida o`lganlar soni birlik, o`sinh yoki kamayish sur`ati % da
(yanvar-sentabr)**

	2018 y.	2019 y.	O`sinh yoki kama- yish sur`ati % da
Qashqadaryo viloyati	9 449	9 084	96,1
Qarshi sh.	840	933	111,1
Shahrisabz sh.	411	418	101,7
tumanlar:			
G`uzor	704	652	92,6
Dehqonobod	391	388	99,2
Qamashi	751	724	96,4
Qarshi	760	720	94,7
Koson	743	756	101,7
Kitob	687	689	100,3
Mirishkor	332	303	91,3
Muborak	244	244	100,0
Nishon	410	383	93,4
Kasbi	617	518	84,0
Chiroqchi	1 065	934	87,7
Shahrisabz	658	631	95,9
Yakkabog`	836	791	94,6

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 58,6 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,2 %i o'simtalardan, 6,3 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 6,1 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,2 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,2 %i yuqumli va parazitlar kasalliklaridan hamda 14,4 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 441 nafarni tashkil etib, ularning 54,9 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 22,7 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 9,0 %i tug'ma anomaliyalardan, 1,1 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 2,9 %i yuqumli va parazitlar kasalliklaridan, 1,1%i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 8,7 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2019 yil yanvar-sentabr

Tabiiy o'sish. 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 53,1 ming kishini tashkil etib, 2018 yil mos davriga nisbatan 3,1 ming kishiga (2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 50,0 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish: 53,1 ming kishi


Nikoh. 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 17,7 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,3 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Koson (106,0 %), Mirishkor (106,2 %), va eng yuqori kamayish sur'atlari Dehqonobod (83,5 %), Nishon (83,6%), Chiroqchi (85,5 %), Kitob (91,4 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.


Nikohdan ajralishlar. 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,1 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 0,5 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Dehqonobod (115,2 %), Koson (114,5 %) va eng yuqori kamayish sur'atlari Mirishkor (82,6 %), Muborak (83,3 %), Chiroqchi (87,3%), Kitob (90,8 %), Qamashi (91,5%) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Tumanlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti



Tumanlar kesimida nikohdan ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-sentabr)



Tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni birlik, o`shish yoki kamayish sur`ati %da (yanvar-sentabr)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2018 y.	2019 y.	O`shish yoki kamayish sur`ati % da	2018 y.	2019 y.	O`shish yoki kamayish sur`ati % da
Qashqadaryo viloyati	19 006	17 672	93	1 165	1 130	97
Qarshi sh.	1 498	1 372	92	212	195	92
Shahrisabz sh.	673	616	92	66	72	109
tumanlar:		0			0	
G`uzor	1 308	1 197	92	67	66	99
Dehqonobod	944	788	83	33	38	115
Qamashi	1 636	1 504	92	94	86	91
Qarshi	1 397	1 381	99	99	103	104
Koson	1 643	1 741	106	55	63	115
Kitob	1 298	1 186	91	119	108	91
Mirishkor	693	736	106	46	38	83
Muborak	601	572	95	30	25	83
Nishon	1 087	909	84	52	50	96
Kasbi	1 273	1 202	94	52	56	108
Chiroqchi	2 441	2 080	85	79	69	87
Shahrisabz	1 025	948	92	78	78	100
Yakkabog`	1 489	1 440	97	83	83	100



Migratsiya. 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 8,0 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 12,9 ming kishini tashkil etdi.

Migratsiya saldosini minus 5,0 ming kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida minus 3,2 ming kishi bo'lgan.



Migratsiya saldosining yuqori darajasi Chiroqchi (minus 0,8 ming kishi), Qamashi, Kitob va Shahrisabz, tumanlarida (minus 0,7 ming kishi), Yakkabog' (minus 0,6 ming kishi), Dehqonobod (minus 0,5 ming kishi) qayd etildi.

**Tumanlar kesimida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni
va migratsiya saldosi, kishi (yanvar-sentabr)**

	Ko'chib kelganlar		Ko'chib ketganlar		Migratsiya saldosi	
	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.
Qashqadaryo viloyati	8 616	7 984	11 836	12 938	-3 220	-4 954
Qarshi sh.	1 422	1 884	1 962	1 857	-540	27
Shahrisabz sh.	187	271	317	581	-130	-310
tumanlar:						
G`uzor	103	358	594	623	-491	-265
Dehqonobod	257	233	632	710	-375	-477
Qamashi	474	304	836	1 017	-362	-713
Qarshi	1 701	1 252	942	936	759	316
Koson	523	369	728	729	-205	-360
Kitob	529	383	825	1 120	-296	-737
Mirishkor	165	251	418	345	-253	-94
Muborak	481	311	469	429	12	-118
Nishon	1 147	765	779	706	368	59
Kasbi	429	409	570	546	-141	-137
Chiroqchi	171	197	1 065	1 045	-894	-848
Shahrisabz	393	478	789	1 133	-396	-655
Yakkabog`	634	519	910	1 161	-276	-642

Aholi migratsiyasi (ming kishi yanvar-sentabr)

	2018 yil	2019 yil
Ko'chib kelganlar	8,6	8,0
Ko'chib ketganlar	11,8	12,9
Migratsiya saldosi	-3,2	-4,9



Aholi migratsiyasi ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar

